

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM SIFATINI
OSHIRISH YOLLARI**

Mamadiyeva Shohsanamxon Xamdamovna
Marg'ilon shahar 19-DMTT direktori

Annotatsiya. *Maqolada maktabgacha ta'lism sohasida so'ngi yillarda amalga oshirilgan islohotlar natijasida qo'lg'a kiritilgan yutuqlar, imkoniyatlar va shu bilan birga tizimda yo'l qo'yilgan kamchiliklar, ularni bartaraf qilish uchun qaratilgan yechim va takliflar haqida so'z borgan. Koreya mamlakatining soha rivojlanishidagi tajribalari muhokama qilingan.*

Tayanch so'zlar. *"Ilk qadam" o'quv dasturi, Maktabgacha ta'lim tashkiloti, professor-o'qituvchi, mexanizm, Koreya modeli, pedagog-tarbiyachi, islohot, Uchinchi Renesans.*

**ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ В ДОШКОЛЬНЫХ
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ**

Аннотация: В статье говорится о достижениях и возможностях, достигнутых в результате реформ, реализованных в сфере дошкольного образования за последние годы, а также о недостатках системы, решениях и предложениях по их устранению. Обсуждался опыт Кореи в разработке месторождений.

Ключевые слова. Программа «Первый шаг», организация дошкольного образования, профессор-педагог, механизм, корейская модель, педагог-воспитатель, реформа, Третье Возрождение.

**WAYS TO IMPROVE THE QUALITY OF EDUCATION IN PRESCHOOL
EDUCATIONAL ORGANIZATIONS**

Annotation. *The article talks about the achievements and opportunities achieved as a result of the reforms implemented in the field of preschool education in recent years, as well as the shortcomings in the system, solutions and suggestions for their elimination. Korea's experiences in the field development were discussed.*

Key words. *"First step" curriculum, Preschool education organization, professor-teacher, mechanism, Korean model, pedagogue-educator, reform, Third Renaissance.*

Davlatimiz rahbarining “O'qituvchi va murabbiylar” kuniga bag'ishlangan tantanali marosimda “Biz keng ko'lamlı demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni uchinchi Renesans poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik” deya da'vatkor nutq so'zlagan edi. Bundan ko'rindiki, yangi Uyg'onish davrining gullab-yashnashini bugungi o'qituvchi-murabbiylar tashabbuskorligi va fidoiy mehnati ta'minlab beradi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek, «Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o'zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog'lom

genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta'lif tizimidan boshlanadi». Ushbu ishlardan ko'zda tutilgan asosiy maqsadga erishishning eng zarur shartlaridan biri esa pedagog kadrlarning yuqori kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishlarini ta'minlash va maktabgacha ta'lif muassasalari faoliyatini modernizasiya qilish bilan bog'liqdir.

Shu o'rinda maktabgacha ta'lif tizimini tubdan takomillashtirish, sohani tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish, umumbashariy muammolarga milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda yechim topish, maktabgacha ta'lif sohasidagi istiqbolli maqsadlarga intellektual salohiyatni safarbar qilish orqali erishish imkonini berdi.

Respublikamizda bugungi kunda maktabgacha ta'lif sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish, bu sohaning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, malakali pedagog va tarbiyachilar bilan ta'minlash, ta'lif-tarbiya jarayoniga zamонави та'lif dasturlari, metod hamda texnologiyalarni tadbiq etish, bu sohada o'quv va o'quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini yaratish orqali bolalarni har tomonlama intellektual rivojlantirish muhim kasb etadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonining 1-ilovasida "...bolalarining har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash" kabi muhim vazifalar belgilangan. Ushbu vazifani takomillashtirish ijrosi bo'yicha maktabgacha ta'lifda bolalarni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash, uning ilmiy-metodik ta'minotini yaratish masalalari maqsad qilib olindi.

Respublikamizda maktabgacha ta'lif tizimini isloh qilishdagi mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida keng ko'lamli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Maktabgacha ta'lif tizimini rivojlantirishga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirish, tizimni tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, boshqaruv tuzilmasini tashkil etish choralar tufayli bugungi kunda ijobjiy natijalar ko'zga tashlanmoqda.

Bugungi kunda ilm-fan taraqqiy etib borgan sari aniq fanlar negizida ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Lekin tarbiya, insonning ma'naviy qiyofasini komillashtirish haqida aniq va lo'nda taklif mavjud emas. Shu bois ta'lif-tarbiya hamisha o'zining dolzarbligini yo'qotmaydi. Ammo o'tkazilgan eksperimentlarning barchasida insonda eng kichik yoshdan tarkib toptirilgan dunyoqarash butun umr davomida saqlanishi o'z tasdig'ini topgan. Ya'ni bu boshlang'ich kompetensiyalar sifatida shakllanib, bolani shaxs sifatida shakllantiradi. Qachonki, pedagog boladagi shaxsiy yo'nalganlikni aniqlay olsa u o'z oldida turgan vazifani belgilay oladi.

Maktabgacha ta'lif tashkilotlaridagi o'quv-tarbiyaviy jarayonga "Takomillashtirilgan ilk qadam" davlat dasturining joriy etilishi ta'lif faoliyatida yangicha yo'nalishni olib kirdi. Dastur oldingi tayanch dasturlariga nisbatan, noan'naviy tarzda tuzilib, u bolalarining individual qobiliyatlarini yuzaga chiqaruvchi usslub vazifasini bajarmoqda. Endilikda, bola tarbiyachi ko'rsatmasi asosida emas, o'zining ichki motivatsiyasiga tayangan holda harakatlanadi. Bola o'zining shaxsini hurmat qilinayotganligini, qiziqishlari va ehtiyojlari qondirilayotganligini, erkin ijodiy harakatlanishi uchun sharoit mayjudligini his etadi.

"Takomillashtirilgan ilk qadam" davlat dasturining tub mohiyati, maqsadi va vazifalarini pedagoglar tafakkurida shakllantirish vaqt talab etuvchi jarayondir. Dastur tatbiq etilganidan buyon uning doirasida ishslash mexanizmi hali tola-to'kis yaratilmadi. Shu bois pedagog-

tarbiyachilar ma'naviy, ilmiy va dunyoviy bilimlarini takomillashtirish borasida yechimini kutayotgan muammolar talaygina. Eski qolipga o'ralib turgan va yangi yo'naliishga moslasha olmayotgan pedagoglar uchun maqbul yechimlar ko'rsatish masalasi turipti. Lekin zamon doimiy o'zgarish va rivojlanishda tarqqiy etmoqda. Doimiy o'z ustida ishlamagan va bilimini charxlab bormagan mutaxassis o'z sohasida faoliyatini davom ettira olmaydi. Chunki ta'limgarbiya tizimi doimiy o'zgarib va takomillashib bormoqda Bu holat XXI asr avlodlari dunyoqarashida aniq ko'zga tashlanmoqda. Chunki bugungi zamon bolalari kichik yoshdan axborot va texnik resurslar bilan yonma-yon ulg'ayishmoqda. Kunlik faoliyatlarini virtual olamdan ayri tasavvur eta olmayaptilar. Shuning uchun ta'limgarbiya masalasi ota-onada ustozlardan chuqur mas'uliyatni talab etadi.

Prezident Sh.Mirziyoyev tomonidan Uchinchi Renesans davriga poydevor qo'yilishi har bir inson o'z oldiga yangi ezgu maqsad qo'yishiga turtki bo'ldi. O'zini yurt taqdiri bilan hamohang bilgan har bir kishi mamlakat rivojida o'z hissasini qo'shish uchun intilmoqda. Kelajak avlodlarni vatanga muhabbat, kattalarga hurmat, yurt ravnaqiga daxldor ekanligini his etib turuvchi barkamol insonlar etib tarbiyalashda eng muhim tayanch maskan sifatida maktabgacha ta'limgarbiya tashkilotlari turadi. Shularni hisobga olgan holda oldimizdagi quyidagi maqsadlarga yechim izlaymiz:

- sohada faoliyat olib borayotgan pedagoglar bilimini baholash va oshirish mexanizmlarini yaratish;
- oliy ta'limgarbiya muassasalarida tahsil olayotgan bo'lajak mutaxassislar bilimini takomillashtirish yo'llarini aniqlash;
- maktabgacha ta'limgarbiya tashkiloti tarbiyalanuvchilari ta'limgarbiya innovatsion texnologiyalarni tatbiq etishda pedagoglar duch kelayotgan muammolarga yechim bo'lувchi taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Ko'pgina rivojlangan chet mamlakatlarining maktabgacha ta'limgarbiya yo'naliishida qo'llagan islohotlari va ularning samarasi o'rganilib, ulardan eng maqbullari amaliyotga joriy qilinmoqda. Xususan, maktabgacha ta'limgarbiya vazirligida Koreya modeli elementlariga urg'u berildi. Bu qarorga davlatimiz rahbarining ushbu mamalakatga tashriflari davomida o'tkazilgan uchrashuvlardan so'ng kelindi. Chunki ushbu tashrif doirasida 20 dan ortiq uchrashuvlar va o'rganishlar davomida bir qator yutuqlar ko'zga tashlandi. Maktabgacha ta'limgarbiya vazirligi tomonidan Koreyaning qator maktabgacha ta'limgarbiya tashkilotlari faoliyati o'rganilib, yaratilgan sharoitlar, o'ziga xosliklar, ta'limgarbiya berish usullari, vositalari, moliyaviy va moddiy ta'minlanganlik holati, bolalar salomatligini asrash yo'lida qilinayotgan ishlar, sifatli oziq-ovqat bilan ta'minlanganlik holatlari atroflichcha o'rganildi. Natijada mamlakatimiz maktabgacha ta'limgarbiya tizimida qo'llash mumkin bo'lgan ko'plab strategiyalar ishlab chiqildi.

Pedagoglar faoliyati uchun maksimal qulay sharoitlarning yaratilgani, pedagogning ijodiy erkinligi, katta hajmdagi hisobotlarning yo'qligi, davlat bog'chalari pedagoglari ijtimoiy statusining yuqoriligi, bolalar o'zlarini namoyon qilishlari uchun yaratilgan ijodiy muhit, jumladan, xonalarning hatto kichik detallarigacha qulay dizayni va jihozlangani, ular uchun boy adabiyotlar va rivojlantiruvchi o'yinlarning mavjudligi, erta bolalikdan jamiyatda o'zini tutish va shaxsiy gigiyena ko'nikmalarini tarbiya qilish kabi alohida jihatlar Koreya maktabgacha ta'limgarbiya tizimi muvaffaqiyatining asosini tashkil etadi.

O'tgan yillar davomida maktabgacha ta'limga tashkilotlaridagi qog'ozbozlikning ortiqcha ovvoragarchiliklari birmuncha optimallashtirildi. Moddiy-o'quv bazasidan tortib oziq-ovqat sifatigacha mukammal standartlashgan mezonlar yaratilib jarayonga tatbiq qilindi. Tarbiyachi-pedagoglarning ko'proq bolalar bilan hamkorlik ishlarni ta'minlashga qaratilgan ta'limga dasturlari yaratildi.

Maktabgacha yosh davridagi bolalarda taqlidchanlik va atrof-muhitdagi kattalar hatti-harakatiga nisbatan e'tibor yuqori bo'ladi. Bolalar psixologiyasi shunday tuzilganki, ular har bir harakati orqali kattalar rag'batiga sazovor bo'lishni xohlaydilar. Tabiiyki, bu darajaga erishish uchun albatta, ulardagi har qanday fazilatni o'zlarida tarkib toptirishga intiladilar. Ya'ni P.F.Lestgaft aytganidek: "Bog'cha yoshidagi davr shunday davrki, unda shakllanajak xarakter xislatlar belgilanadi va axloqiy sifatlar yuzaga chiqadi". Demak, bolalarni ma'naviyiy yuksalishi ko'p jihatdan tarbiyachilar mehnatiga bog'liq. Tarbiyachining ta'limga tarbiyaviy faoliyatni natijasida bolada shakllanuvchi dunyoqarashni quyidagicha tasvirlash mumkin.

Pedagogik faoliyatning ijodiy tavsifga egaligi tarbiyachidan ilg'or ish tajribalarni o'rganish, innovatsiyalarni o'zlashtirish va amaliyatga tatbiq etishni talab etadi. Innovatsiyalarni jadal kirib kelishi tarbiyachilarni ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtirok etishga jalb etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Tarbiyachilarni bunday tadqiqot ishlariga jalb etilishi keyinchalik erishgan natijalarini o'z faoliyatida muvaffaqiyatli foydalanishga imkon beradi.[5.19bet] Xorijiy adabiyotlarni o'rganish va internet saytlaridagi xalqaro ish tajribalarini o'rganishga qaratilgan onlayn konferensiya va anjumanlarda qatnashish chet tilini bilgan kadr uchun qiyinchilik tug'dirmaydi va u ijodiy faoliyatda yuqori natijalarni kasb etib boradi.

Maktabgacha ta'limga tashkiloti pedagoglari uchun maktabgacha ta'limga butun tizimini qayta qurish, nafaqat bola bilan, balki maktabgacha ta'limga barcha subyektlari bilan aloqa va o'zaro munosabat usullarini o'zgartirish zaruriyati yuzaga keldi. Shu sababli, maktabgacha tashkiloti pedagoglarining assosiy vazifasi bolalar bilan ishslashni tashkil etish usullari va shakllarini, shaxsning potensial imkoniyatini olib berish maqsadida eng mos keladigan innovatsion pedagogik texnologiyalarni tanlashdir. Tarbiyachi-pedagoglarda ta'limga dasturlaridagi ushbu ko'rsatmalarni bajarishda qiyinchiliklarga uchramasliklari, innovatsion jarayonni yarata olishlarida albatta yetakchi-mutaxassislar yordami zarur bo'ladi. Shuning uchun maktabgacha ta'limga tashkilotlari xodimlari o'rtasida professor-o'qituvchilar tomonidan treninglar, maslahat soatlari, tajriba-sinov mashg'ulotlarini olib borish juda foydali natija beradi. Shu sababli oliy o'quv yurti o'qituvchilari va maktabgacha ta'limga tashkilotlari pedagoglari bilan hamkorlik ishlari yo'lga qo'yilishi kerak. Bunday hamkorlik ishlarida maktabgacha ta'limga tashkilotlari pedagoglarini ham oliy ta'limga seminar mashg'ulotlariga jalb etish mumkin. Bu talabalar bilan o'zaro tajriba almashish va ayrim kamchiliklarni aniqlashda qo'l keladi. Ana shunday yondashishlar natijasida sohada ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritish mumkin.

Maktabgacha ta'limga sohasidagi davlat siyosatining maqsadi har bir bolaning sifatli va bepul ta'limga olish huquqini amalga oshirishdir.O'zbekistonda maktabgacha ta'limga zamoniaviy tizim shaklarining variativligi, jamiyat va shaxsning ehtiyojlari moslashuvchan munosabat, bolalar uchun maktabgacha ta'limga yangi turlarining paydo bo'lishi har xil pedagogik xizmatlar bilan tavsiflanadi. Mamlakatimizda rivojlanish ko'rsatkichlarini sifatli

ta'lism-tarbiya va barkamol shaxslar ta'minlay oladi. Buning uchun barcha ta'lism faoliyati qatnashchilari bu yo'lda birdamlikdagi faollikni qo'ldan bermasliklari zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “O'zbekiston Respublikasi mактабгача та'lим тизими 2019-2030 yillarda rivojlantirish konsepsiysi” 2019 y
2. Grosheva I.B., Mirziyoyeva SH.SH., Tashmuhammedova F.B., Rustamova M.E., Madjidova H.A., Mikailova U.T., Ismailova M.A “Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlarini ishlab chiqish” Metodik qo'llanma, Toshkent, 2020 yil 8 bet
3. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yilgan davlat talablari. Toshkent 2018 yil
4. Uljayevna U. F. The activity of developmental centers in the formation of children's abilities //Science and innovation. - 2022. - т. 1. - №. B2. - с. 107-110.
5. Uljayevna o. R. F., qizi a. Z. N. Tarbiyachining innovations faoliyatga tayyorlashning didaktik komponentlari //Science and innovation. - 2022. - Т. 1. - №. B3. - С. 340-344.
6. Уринова Ф. У. Особенности развития психологии ребёнка дошкольного и младшего школьного возраста //Science and innovation. - 2022. - т. 1. - №. B2. - с. 68-71.
7. Uljayevna O'. R. F. Maktabgacha talim tashkiloti tarbiyachisining kasbiy pedagogik kompetensiyani takomillashtirish xususiyatlari //science and innovation. - 2022. - т. 1. - №. B2. - с. 88-91.
8. Uljayevna O'. R. F., Saydamatovna S. Z. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy faoliyatini shakllantirishning o'quv-uslubiy ta'minoti //Science and innovation. - 2022. - Т. 1. - №. B3. - С. 349-355.
9. Uljayevna O. F. Bo'lajak tarbiyachilarining kasbiy salohiyatini takomillashtirishda ilmiy faoliyatga tayyorlashning metodik tizimi //Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. - 2022. - с. 660-667.
10. Uljayevna u. F. Et al. Creolized texts, their features and possibilities //Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. - 2022. - с. 668-673.
11. Uljayevna O. F. et al. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini maktabga tayyorlash tamoyillari //Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. - 2022. - С. 654-659.
12. Uljaevna U. F. Et al. Development of creative activity of preschool children in art game as a psychological and pedagogical problem //Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. - 2022. - с. 47-51.
13. Uljaevna U. F. Et al. Necessary conditions for the development of creative thinking in future teachers //Modern Journal of Social Sciences and Humanities. - 2022. - Т. 4. - С. 444-448.
14. Uljayevna O. R. F., Saydamatovna S. Z. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy faoliyatini shakllantirishning o'quv-uslubiy ta'minoti //Science and innovation. - 2022. - Т. 1. - №. B3. - С. 349-355.